

TURSUNBOY ADASHBOYEV SHE'RLARINING BOLALAR ADABIYOTIDAGI O'RNI

Fayziyeva Shamsiya Bekmirzo qizi

*O'zbekiston-Finlandiya instituti Pedagogika fakulteti
2-kurs talabasi Tel: +998 (94)7655995*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tursunboy Adashboyev she'riyatidagi bolalar obrazi, ularning o'ziga xos xarakter, xususiyatlari tahlil qilingan. Bolalarning rang-barang ruhiy olami hamda ramziy detallarning ma'nolari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Bolalar adabiyoti, beg'uborlik, bolalar shoiri, go'dak yig'isi, bolalar dunyosi.*

Annotation: In this article analyzes the image of children in the poetry of Tursunbay Adashbayev, this unique character and characteristics. The colorful spiritual world of children and the meaning of symbolic details are highlighted.

Keywords: Children's literature, innocence, children's poet, the cry of child, children's world.

Аннотация: В данной статье анализируется образ детей в поэзии Турсунбай Адашбаева, их неповторимый характер и особенности. Освещен красочный духовный мир детей и значения символических деталей.

Ключевые слова: Детская литература, невинность, детский поэт, детский плач, детский мир.

Bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Bolalar shoiri va yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutgan holda tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg'a intilishga chaqiradi, bu esa ularning hayotda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktik ohang ustun turadi.

O'zbek bolalar adabiyotining salmoqli ijodkorlaridan biri Tursunboy Adashboyev ijodida ushbu xususiyatlarning deyarli barchasini kuzatishimiz mumkin. U ko'plab asarlari bilan bolalar adabiyotining rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Tursunboy Adashboyev she'rlari bolalar qalbi, ruhining yorqin ko'zgusidir.

Bolalar adabiyotida Quddus Muhammadiy, Quddus Hikmat, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab kabi shoir va yozuvchilarning bolajonlarga taqdim etgan asarlari adabiyotimizda salmoqli o'rin tutadi. Bu ro'yhatni yaqinda vafot etgan atoqli shoir Tursunboy Adashboyevning nomisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bolaning xayol osmoni bepoyon, ufqlarga sig'maydi. Uningcha, mushuk bekordan bekor ham oftobga chiqaveradi. Kattalar xayoli esa, ularning o'zi kabi bepoyon kengliklarda behuda suzmaydi.

Bolalar shoiri mohir sehrgar kabi bolaning yengidan, yoqasidan she'r oladi va bunga bolani ishontiradi. Ishontira olmasa, bola ham she'rga ishonmaydi.

-Qarg'a qaqimchi ekan,
Chumchuq chaqimchi ekan,
G'oz karnaychi ekan,
O'rdak surnaychi ekan.
-G'oz karnaychi bo'lmasin,
O'rdak surnay chalmasin.
Karnaychi Shokir tog'am
Xafa bo'lib qolmasin.

Tursunboy Adashboyevning "G'oz karnaychi bo'lmasin" she'ridan olingan ushbu iqtibos shoir ijodining o'ziga xos xususiyatlari, individual xarakteri, betakror badiiy bo'yog'i aks etgan deyish mumkin. Qarg'a, chumchuq, g'oz, o'rdak- bolalar badiiy olamining doimiy personajlari, bolalarning sevimli qahramonlari. Qahramonlarigina emas, bolalarning ajoyib do'stlari, o'rtoqlari. G'aroyib qahramonlar yordamida bolalar tasavvur olamiga, o'suvchan hayotga kirish oson va qulay. Ushbu mayin va shaffof chegaradan bolalarning xayol, orzu hududiga o'tish mumkin. Tursunboy Adashboyev shu beg'ubor maydonga o'ta olgan.

Yuqorida keltirilgan she'riy parcha dialog shaklida qurilgan. Bu esa she'r o'qiyotganda bolaning sezgi va tafakkuri hushyor bo'lishini, idrok oqimi monotonlik (bir xillik)dan zerikmasligini, ya'ni fikriy va hissiy qabul qilishi faol harakatda bo'lishini, obyekt bilan uzluksiz munosabatga kirishishini ta'minlaydi. She'rning eng muhim jihati esa, "karnaychi" so'zining ko'pqatlamli ma'no kasb etishidadir. G'oz karnaychi, nega o'rdak emas? Chunki o'rdak tabiatan anqovroq, fahmsizroq, yon-atrofdan kechayotgan voqealarga g'ozchalik hushyor emas. Shu bois karnaychi bo'lish o'rdakka yarashmaydi. Bu mashg'ulot rosa g'ozbop-da! Nima uchun? Avvalo, g'ozning o'zida "g'oz"lik odati bodilik, hovliqmalik, shoshqaloqlik, shu bilan birga, o'rdakka nisbatan ortiqcha ziyraklik, sezgirlik, voqealar mohiyatini tezroq va aniqroq ilg'ash kabi xususiyatlar mujassam. Yo'q, biz emas, bu fe'l-atvorni o'rdakka ham, g'ozga ham xalq ijodi- folklor, ertaklar, afsonalar timsol etib berilgan. Yozuvchi shunday timsollar orqali bolajonlarning mehrini qozongan.

Rostini aytganda, kitobga mehri tushgan biror xonadon yo'qki, Tursunboy Adashboyevning, hech qursa bitta kitobini mutolaa qilgan bo'lmasa. Ushbu shoirning she'rlari bolalarni nafaqat qiziqtiradi balki ularga yangi ma'lumotlar beradi, ularning aqlini charxlaydi. Masalan Tursunboy Adashboyevning "Chumchuqlarga uyadir" nomli she'rini ko'rib chiqaylik:

Ashraf aka anor so'ydi,
Anormisan-anor deysiz.
Har donasi gavhar misol,
Yalt-yult etar fanor deysiz.
"A" harfini olgan edik,

Yo'q narsadan "bor" bo'ldi.
Barchamizga tanish hayvon,
Qo'sh o'rkachli nor bo'ldi.
Bolakaylar, bilib qo'ying,
Nor degani tuyadir.
"T" harfini qisqartirsak,
Chumchuqlarga uyadir.

Ushbu she'r bolalarga yangi so'zlar o'rganishda, bazi bir so'zlardan birorta xarfni olib tashlasak yoki qo'shsak boshqa bir yangi so'z hosil qilish mumkinligini o'rgatishda yordam beradi. Bundan tashqari bu she'r orqali bolajonlarga so'zlarning ma'nosi ham tushuntirilgan. Ajoyib yozuvchi Tursunboy Adashboyev bolalarni ham o'ylashga ham tasavvur qilishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.G.Rahimova. Ona tili va adabiyot(bolalar adabiyoti). O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "NOSIR", 2009.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.
4. Aleksseeva M.M., Yashina V.I. Maktabgacha tarbiyachilarning ona tili tomonidan nutq va o'qishni rivojlantirish metodologiyasi. – M., 2007.
5. Bolshova T.V. Biz ertakdan o'rganamiz. – Sankt-Peterburg, 2009.
6. Borodich A.M. Bolalar nutqini rivojlantirish usullari. – M., 2014.
- 7.Gurovich L.M. Baby Boy va kitob /m. Gurovich, l.b. Qirg'oq, v.i. Loginov. – M., 2009.
- 8.Nest: Bolalar bog'chasida rivojlanish va ta'lim dasturi /V.I. Loginova, T.I. Babaeva, N.A. Notek va boshqalar. Ed. T.I. Babaeva, Z.A. Mixailova, L.M. Gurovich: Ed. 2-chi. – SPB, 2007.
9. Mirzayev I.K, Muhiddinova B., Ro'zmonova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Samarqand, SamDU, 2019.
10. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2020.
11. Saviya.uz
12. Arboblar.uz
- 13..Ziyouz.com